O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djамaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	



O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna

“Ipak Yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti assistent o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-0557-6305

E-mail: charos.maxmadiyeva@univ-silkroad.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasida ovqatlanish xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish, ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda mijozlar tajribasini oshirish masalalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sifati, interyer dizayni, taomlarning ta'mi va qulay joylashtirish kabi omillar turistlarda ijobiy taassurot uyg'otib, ovqatlanish korxonalariga qaytish ehtimolini oshirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada ovqatlanish xizmatlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish, mijozlar sodiqligini shakllantirish hamda xalqaro standartlarga mos dasturlarni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari mamlakatimizning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mijozlar tajribasi, xizmat ko'rsatish dizayni, bezatish, unutilmas ovqatlanish tajribasi, mijozlar sodiqligi.

Abstract. This article examines the development of catering services in Uzbekistan's tourism sector, focusing on improving management mechanisms and enhancing customer experience. The findings reveal that service quality, interior design, food taste, and convenient seating arrangements positively influence tourists' impressions and significantly increase their likelihood of revisiting dining establishments. Moreover, the study provides practical recommendations aimed at strengthening the competitiveness of catering services, improving customer loyalty, and integrating international service standards. The results contribute to increasing Uzbekistan's attractiveness as a tourist destination.

Key words: customer experience, service design, decoration, memorable dining experience, customer loyalty.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития услуг питания в туристическом секторе Узбекистана, совершенствования механизмов их управления и повышения качества клиентского опыта. Результаты исследования показывают, что качество обслуживания, интерьер, вкус блюд и удобство размещения посетителей оказывают положительное влияние на впечатление туристов и повышают вероятность их повторного посещения заведений питания. Кроме того, предложены практические рекомендации по усилению конкурентоспособности услуг питания, формированию лояльности клиентов и внедрению международных стандартов обслуживания. Полученные результаты способствуют повышению туристической привлекательности Республики Узбекистан.

Ключевые слова: клиентский опыт, дизайн услуг, оформление, незабываемый опыт питания, лояльность клиентов.

KIRISH

Global miqyosdagi hisob-kitoblarga ko'ra, sayyohlar umumiy sayohat byudjetining o'rtacha 25 foizdan (Jahon Oziq-ovqat Turizmi Assotsiatsiyasi, 2017-yil) 33 foizigacha (Jahon Turizm Tashkiloti, 2012-yil) ovqatlanish va ichimliklarga sarflaydi. Turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar — restoranlar bo'lib, ushbu xizmatlar sifati va ularni boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi turistlar oqimini ko'paytirish, mamlakatning jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda milliy brend sifatida tanilish darajasini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda turizm va ovqatlanish xizmatlarining bugungi holati

O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi turizm sohasining barqaror rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Turizm industriyasining muhim tarmoqlaridan biri restoran biznesi bo'lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taomlarning sifati va ta'miga, balki mijozlarga ko'rsatiladigan xizmat darajasi, ovqatlanish muhitining qulayligi va umumiy dasturxon madaniyatiga ham bog'liq. Milliy o'zbek taomlari dunyo miqyosida



keng ommalashgan bo'lib, bugungi kunda ko'plab xorijiy davlatlarda ham o'zbek oshxonasiga xos taomlar taqdim etilmoqda. Turizmning jadal rivojlanishi, shuningdek, raqamlashtirish va zamonaviy xizmat dizayni tendensiyalari restoran biznesida sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talabni izchil oshirmoqda.

O'zbekiston turizm industriyasida sezilarli yuksalish kuzatilmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra (2025-yil yanvar–iyul), turistik maqsadlarda mamlakatga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni 6 mln 319,1 ming kishini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 2,1 mln nafarga yoki 48,9 foizga ko'proqdir. Bu esa turizm infratuzilmasini, xususan, ovqatlanish xizmatlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Mazkur jarayonda ovqatlanish xizmatlari tarmog'ining rivojlanish salohiyati yuqori bo'lib, sifatsiz xizmat yoki xizmat madaniyatidagi kamchiliklarni emas, balki mijozlar tajribasini yanada boyitish, sodiqlikni shakllantirish, xizmat ko'rsatish dizaynini modernizatsiya qilish, milliy taomlar segmentini xalqaro standartlar asosida taklif etish kabi imkoniyatlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda turizm sohasida ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish hamda ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda xizmatni loyihalash (service design) yondashuvining ahamiyatini o'rganib, ushbu yondashuv mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini va ovqatlanish tajribasini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotda ma'lumotlar mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali yig'ildi. Turizm va ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamda milliy izlanishlar ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlab, gastronomik turizmning nafaqat turistning ovqatlanish tajribasini boyitishi, balki madaniy merosni targ'ib qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilishini ko'rsatmoqda.

Smith va Xiao (2008-yil) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gastronomik turizm turistlarning madaniy bilim va taassurotlarini kengaytirishi bilan birga, mahalliy iqtisodiyotga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Okumus va hammualliflar (2018-yil) esa restoran biznesida muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari sifatida sifat nazorati, xizmat ko'rsatish standartlari va mijozlar bilan samarali kommunikatsiya tizimini alohida belgilaganlar.

O'zbekistonlik olimlar — M.M. Muxammedov, D.X. Aslanova, B.A. Abdulkarimov, I.I. Ivatov, T.S. Sharipov, S.R. Safoeva va R.J. Qurbanova tomonidan olib borilgan izlanishlar milliy turizm infratuzilmasini, xususan, restoran biznesi tashkil etilishi, ularni boshqarish tamoyillari, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va hududiy xizmat xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda innovatsion yondashuvlar, xizmat sifati mezonlarini baholash hamda zamonaviy xizmat modellarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mavjud ilmiy izlanishlar restoran biznesini turizm infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqqan bo'lsada, O'zbekistonda turistlarga ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish tizimini chuqur o'rganish, boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish hamda xizmat dizayni konsepsiyalarini amaliyotga joriy etish masalalari hali to'liq yoritilmagan. Shu sababli "O'zbekistonda turistlarga ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusi bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Restoran sanoatida xizmat sifati mijozlar ehtiyojini qondirish, ularning qoniqish darajasini oshirish, sodiqlikni shakllantirish hamda xodimlar ish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim omildir. Xizmat dizayni kompaniya mahsulotini mijozga to'g'ri namoyish etish vositasi sifatida raqobatbardosh ustuvorliklarni yaratishga xizmat qiladi. Restoran korxonalari o'z xizmat jarayonlarini rejalashtirishda barqaror sifat, o'z vaqtida xizmat ko'rsatish, individual ehtiyojlarga moslashuvchan yondashuv va mahsulotni moslashtirish kabi tamoyillarga asoslanishi zarur. Xalqaro tajribada keltirilgan "Restoran sanoati uchun xizmat ko'rsatish jarayoni matritsasi va loyihalash yondashuvi" (2023-yil) ham ushbu omillarni muvaffaqiyat kaliti sifatida ko'rsatadi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishdan oldin restoran egalari xodimlar bilan ishlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishi muhimdir. Raqobat kuchli bo'lgan restoran bozorida xodimlarning qoniqish darajasi yuqori bo'lishi xizmat sifati va mijoz kayfiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Xalq orasida keng tarqalgan "baxtli xodimdan baxtli mijoz keladi" tamoyili mazkur sohada ham o'z tasdig'ini topadi. Ofitsiant yoki styuardessaning tabassumi, muloyim ohangi, madaniyatli muomala uslubi mijozda ijobiy taassurot qoldiradi va ovqatlanish tajribasini yoqimli qiladi. Shu nuqtai nazardan restoran menejerlari xodimlarni mijoz bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, muloqotda samimiylik va ehtiyojlarga e'tibor ko'rsatish bo'yicha o'qitishi zarur.

Tolson (2023-yil) fikrlariga ko'ra, mijozlar tomonidan restoran tajribasi ikki omil orqali baholanadi: xodimlarning mehmondo'stligi va umumiy muhitning qulayligi. Shuning uchun restoranlar mijozlarni iliq kutib olish, muloqot davomida diplomatiya va muloyimlik, allergiyasi yoki maxsus ehtiyoji bo'lgan mijozlarga alohida e'tibor berish, kelgan mijozni darhol xizmat bilan ta'minlash va shikoyatlar yuzaga kelganda ularni tezkor va ijobiy tarzda hal qilish bo'yicha professional yondashuvni shakllantirishi lozim.



Ovqatning ta'mi ovqatlanish xizmatlari sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda iste'molchilar sog'lom parhezga e'tibor qaratayotgan bo'lsalar-da, mahsulotni tanlashda ta'm hali ham eng muhim mezon sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Xalqaro oziq-ovqat ma'lumotlari kengashi tomonidan o'tkazilgan so'nggi Ctrlalt so'rovi (2022-yil) natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 88 foizi mahsulot sotib olishda ta'mni asosiy sabab sifatida qayd etgan. Ushbu ko'rsatkich narx (70%), mahsulotning tabiiyligi (60%), qulaylik (52%) va ekologik barqarorlik (34%)dan yuqori bo'lib, mazali mahsulotni xaridor tomonidan qayta xarid qilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa bilvosita mijozlar sodiqligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xuddi shu tamoyil restoranlarda taqdim etiladigan taomlar uchun ham xos bo'lib, iste'molchilar uy ovqatidan farqli ravishda yuqori sifat va mazaga ega taom iste'mol qilish maqsadida restoranlarga murojaat qiladilar. Agar mijoz taomning ta'mini yuqori deb hisoblasa, u mazkur restoranga qaytish ehtimoli ortadi, hatto mazali taom takroriy xaridni ta'minlash bilan birga, mijoz tomonidan ushbu restoran haqida boshqalarga tavsiya etilishiga ham olib keladi. Marketingda bu jarayon "og'izdan-og'izga" kommunikatsiya (word of mouth) deb ataladi. Bunday hollarda mijozlar reklamalardan ko'ra, o'zlari ishonadigan tanishlari fikriga ko'proq e'tibor qaratadilar. Taom ta'mi yuqori bo'lgan hollarda mijozlar odatda mahsulot narxini qimmat deb hisoblamaydilar, chunki ularning fikricha taom sifatining bunday narxga arziydi. Aksincha, taom yetarlicha mazali bo'lmaganda, hatto past narx ham yuqori deb qabul qilinadi va bu holat mijozning takroriy tashrif buyurish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Restoran biznesida mijozlar tajribasi (customer experience) xizmat ko'rsatish sifatining boshqa omillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hatto kichik tafsilot ham mehmonlarning umumiy qoniqish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mijozlarning fikr-mulohazalarini o'rganish xizmatni takomillashtirishning muhim bo'g'ini sanaladi. Restoranlarda taomning ta'mi, xizmat madaniyati, qulay o'tirish joylari, to'lov tizimlarining qulayligi, fon musiqasi, muhit bezatilishi, buyurtma berish jarayonining qulayligi, buyurtmalarni to'g'ri qabul qilish va boshqa detallar mijoz tajribasini shakllantiruvchi asosiy omillardir.

Restoranlarda o'tirishga oid qulayliklar ham mijozlar tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi. Turli turdagi o'tirish shakllarining mavjudligi mijozlarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda xizmatni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, stendga o'tirish (booth seating) tez ovqatlanish xizmatlari uchun qulay bo'lib, kichik guruhlar uchun ideal yechim sanaladi. Erkin o'tirish (loose seating) esa ko'chma va moslashuvchanligi tufayli restoran ichida mijozlarga qulay joy tanlash imkonini beradi. Skameykada o'tirish (bench seating) katta guruhlar uchun mo'ljallangan bo'lib, oilaviy yig'ilishlar uchun juda qulay hisoblanadi. Poseur o'tirish (poseur seating) turidagi balandroq o'rindiqlar odatda muloqotni ustuvor biladigan mijozlar uchun mo'ljallangan bar va pablar uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari, umumiy o'rindiqlar 10 va undan ortiq kishilik guruhlar uchun qulaylik yaratadi hamda oilaviy restoranlarda tez-tez uchraydi. Ochiq havoda o'tirish esa qulay iqlim sharoitida mijozlarga estetik zavq ham berib, ovqatlanish tajribasini boyitadi.

Mehmonlarni joylashtirish jarayonida host yoki hostess (mezbon) xizmatining roli muhim bo'lib, ular mijozlarning soni, ovqatlanish maqsadi va guruh shaklini inobatga olgan holda ularni qulay joylarga yo'naltirishlari zarur. Mijozlar uchun qulay o'tirish sharoitini ta'minlash ularning qoniqishini oshiradi va xizmat sifati haqidagi ijobiy fikrlarning ko'payishiga olib keladi. Demak, mijozlarni joylashtirish strategiyasi xizmat ko'rsatish jarayonining muhim bo'lagi sifatida mukammal darajada yo'lga qo'yilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda turistlarga ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar miqdoriy va sifat tadqiqot uslublarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotning sifat bosqichida uchta turli restoran faoliyati chuqur kuzatilib, ularda xizmat ko'rsatish sifati, o'tirish joylarining mavjudligi, mijozlarni joylashtirish jarayonlari hamda taomlarning ta'mi asosiy baholash mezonlari sifatida o'rganildi. Bu bosqichning maqsadi ovqatlanish muhitining umumiy taassurotga ta'sirini aniqlash va xizmat dizaynida takomillashtirish jihatlari belgilashdan iborat bo'ldi.

Miqdoriy bosqichda maxsus ishlab chiqilgan anketa so'rovi yordamida mijozlarning qoniqish darajasi, restoranlarda olingan umumiy tajriba, baholash mezonlari va xizmatni rivojlantirish bo'yicha takliflari tahlil qilindi. So'rovnoma turistlar uchun ovqatlanish xizmatlarining qiymat darajasi, taom sifati, xizmat ko'rsatish tezligi, xodimlarning muomala madaniyati va muhit qulayligining mijozlar qaroriga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi.

Namuna olish strategiyasi turli restoranlarda ovqatlangan shaxslarni qamrab olgan holda amalga oshirildi. So'rovda jami 60–65 nafar respondent ishtirok etdi, shundan 51 nafari onlayn so'rovnoma orqali, qolganlari esa bevosita suhbat asosida ma'lumot taqdim etdi. Respondentlar tarkibi talabalar, o'qituvchilar, turizm sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar hamda turli millat vakillaridan tashkil topgan bo'lib, bu holat tadqiqotning obyektivligi va natijalarining umumlashtirish imkoniyatini kengaytirdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda turistlarga ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish jarayonini takomillashtirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan bir qator ustuvor yo'nalishlar va imkoniyatlarni ko'rsatdi. Respondentlarning 36 foizi yaqinda tashrif buyurgan restorandagi tajribasidan "juda qoniqish" bildirgan bo'lsa, 46 foizi "qoniqqanini" ta'kidlagan. Qolgan ishtirokchilar orasida 12 foiz neytral javoblarni, 6 foiz esa "qoniqmaslik" holatini bildirgan. Bu esa umumiy qoniqish darajasining yetarli darajada yuqori ekanini ko'rsatadi, ammo yanada mukammallashtirish uchun imkoniyat mavjudligini ham anglatadi.

Respondentlarning 48 foizi taom sifatini asosiy ijobiy omil sifatida qayd etgan, 40 foiz esa restoran muhitini ma'qullagan. Xizmat ko'rsatish sifati ham e'tiborga molik bo'lib, respondentlarning muayyan qismi uni ijobiy baholagan, biroq narx bo'yicha atigi 2 foiz ijobiy fikr bildirgan. Bu holat narxning raqobatbardoshligi va qiymat (value for money) tamoyili asosida takomillashtirilishi lozimligini ko'rsatmoqda.

Restoranda yaxshilanishi kerak bo'lgan yo'nalishlar haqida berilgan javoblar ham turlicha bo'ldi. Ishtirokchilarning 34 foizi xizmat ko'rsatish jarayonini ustuvor takomillashtirish obyekti sifatida ko'rsatgan, respondentlarning chorak qismidan ko'pi taom sifatini yanada yaxshilashni muhim yo'nalish sifatida belgilagan, 22 foiz muhit va atmosfera, 18 foiz esa narx siyosatini kuchaytirish lozimligini ta'kidlagan.

Tahlil davomida 15 nafar ishtirokchi xizmatni "kamchiliklarsiz" baholagan, yana 15 nafari "o'rtacha" deb topgan. Ularning umumiy 34 foizi xodimlarning e'tiborli va bilimdon ekanini alohida e'tirof etgan. Bu natija xodimlar salohiyati oshishi mijozlar qoniqishini sezilarli darajada mustahkamlashini tasdiqlaydi.

Ishtirokchilarning 37 foizi shovqinli muhitni asosiy noqulay omil sifatida qayd etgan. Oziq-ovqat sifati va xizmatdagi kamchiliklar 23,9 foiz respondent tomonidan eslatilgan bo'lsa-da, bu omillarni takomillashtirish orqali mijozlar tajribasini yaxshilash mumkinligi aniq ko'rinadi. Shuningdek, 15,2 foiz respondent o'tirish joylarining ergonomik qulayligini oshirish zarurligini bildirgan. Demak, ovqatlanish muhitidagi jismoniy qulaylik ham mijoz tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari restoranlarda xizmat dizaynini takomillashtirish, xodimlarni malaka oshirish bo'yicha tizimli yondashuvni yo'lga qo'yish va mijozlar tajribasini boshqarish strategiyalarini joriy etish biznes uchun sezilarli foyda keltirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu jarayonlar egalaridan qat'iyat va uzluksiz rivojlanishga intilish talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda, restoranlarda mijozlar sonini saqlab qolish va ko'paytirishda ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish dizayni va to'g'ri boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston turizm sohasidagi ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmini takomillashtirish nafaqat turistlar tajribasini yaxshilaydi, balki mamlakat iqtisodiyotini ham mustahkamlaydi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida o'rni mustahkamlashga yordam beradi.

Ovqatlanish xizmatlari sifatini oshirishda mijozlar sodiqligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki restoranlarning asosiy daromad manbai takroriy tashrif buyuradigan doimiy mijozlardir. Shu sababli, bonuslar, chegirmalar va a'zolik dasturlariga asoslangan rag'batlantiruvchi tizimlarni joriy etish orqali mijozlarda restoranga nisbatan tegishlilik va ishonch hissini mustahkamlash tavsiya etiladi. Sanoatning tez sur'atlar bilan o'zgarib borishi xodimlarni muntazam ravishda tayyorlashni ham zarur qiladi. Mijozlar fikrlariga asoslangan treninglarning muntazam tashkil etilishi xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldindan bartaraf etish va xodimlarning mehmondo'stlik madaniyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, restoranlarda elektron va oflayn ko'rinishdagi fikr-mulohaza tizimining yo'lga qo'yilishi mijozlarning ehtiyojlari va kutganlarini samarali aniqlashga yordam beradi. Bunday tizimlar xizmatning kuchli tomonlarini aniqlash, takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarni belgilash hamda shikoyatlarni erta aniqlab, ijobiy tarzda hal etish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2023). O'zbekiston turizm strategiyasi – 2030. <https://www.lex.uz/ru/docs/-6577477?ONDATE=22.08.2023>
2. World Tourism Organization (UNWTO). (2022). Gastronomic Tourism: Strategies and Trends.
3. Smith, S. L. J. (2021). Tourism Analysis and Development. Oxford University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). Turizm va ovqatlanish sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar.
5. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
6. Kotler, P., Bowen, J. T., & Makens, J. C. (2020). Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson.
7. O'zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat xavfsizligi agentligi. (2023). Ovqatlanish xizmatlari sifat standartlari va gigiyena qoidalari. <https://lex.uz/docs/-7359113>
8. International Journal of Hospitality Management. (2022). Technology and Innovation in the Restaurant Industry.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>